

AGRESSIV BOLALAR BILAN KORREKSION ISHLARNI OLIB BORISHDA SAMARALI ISHLARNI TASHKIL ETISH

Boymurodova Xadicha Raxmatullayevna

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani MMTBga qarashli 18-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar orasida uchraydigan agressiv xulq-atvorning psixologik sabablari, shakllanish mexanizmlari hamda ularni tuzatishga yo'naltirilgan samarali korreksion ishlar yoritilgan. Agressiv bolalar bilan ishlashda individual yondashuv, emotsiyal muhitni yumshatish, o'zini anglash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim omillar sifatida taqdim etiladi. Tadqiqotda korreksion faoliyatning asosiy yo'nalishlari — suhbat, rolli o'yinlar, art-terapiya, relaksatsion mashqlar, hamkorlikka asoslangan guruh ishlarining samaradorligi ko'rsatiladi. Maqola psixologlar, ijtimoiy pedagoglar hamda tarbiyachilar uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: agressiv xulq-atvor, bolalar psixologiyasi, korreksion ishlar, psixoprofilaktika, art-terapiya, emotsiyal regulyatsiya, psixokorreksiya, individual yondashuv, psixologik muhit.

Agressiv og'ir xavfli vaziyat paydo bo'lganida agressivlik himoya ba'zida esa vaziyatni bartaraf etuvchi vazifani bajaradi. Agressiv hulq ayniqsa bolada yoshga hos bo'lgan o'tish davrida kuzatiladi. Agressiv tendensiyalarni tasodifiy salbiy holat deb baholab bo'lmaydi. Shuni esda tutish kerakki effektiv taraqqiyot jarayonida bola aktivligi qonuniy ravishda oshishi mumkun. Odatda, kattalar yordamida o'tkazilgan psixakarreksiyaning bu zaruriy bosqichida bola o'zini qurshagan reallik bilan nisbatan adeqvat turdag'i muloqotni o'zlashtirishi mumkin. Bola agressiyasini korrektiya qilishni uning sababini aniqlashdan boshlash lozim. Agar agressiya emotsiyal mativatsion sferaning buzilish sababli bo'lmasa korreksion faoliyatni uni yo'qatishga emas, balki salbiy oqibatlarga olib keluvchi agressiv hulqni yumshatish va uning namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka qaratish lozim.

Korreksion metodikaning qo'llanishi to'liqligicha aggressiv hulqning sababiga bog'liq bo'ladi. Karreksiya metodi konkret hodisa va konkret bolani hisobga olgan holda tanlanadi. Bu quyida sharhlangan korreksiya metodlarini diqqat bilan ko'rib chiqishni taqazo etadi.

1 Agressiyaga moyillikni e'tiborga olmay qo'yish, unga atrofdagilarning diqqat qaratmasligi.

2 Agressiv harakatlarni o'yin mazmuniga kiritish va unga yangi emotsiyal mazmun berish. Bu orqali bolaning atrofdagilarga zarar yetkazmagan holda aggressiv moyilligini chiqarib yuborish (masalan, qaroqchi va qazaqlar o'yinida aggressiv hulqli bolaga qaroqchi ro'lini berish). Agressiv hulqli bolaning ota-onasi bilan ishslash Bu juda murakkab ishlardan biri hisoblanadi. Ular bolaning tinchlantirilishini va bola ularni hafa qiluvchi ishlarini tugatishini istaydilar. Ko'p hollarda aggressiv hulqli bolaning ota-onasi tushkunlikka tushgan va hayotidan norozi odamlar bo'lishadi. Shu sababli psixolog birinchi navbatda bolaning ota-onasi bilan psixaterapevtik ish olib borishi lozim.

Psixolog quyidagilarga alohida et'ibor qaratishi lozim.

Birinchidan, ota-onaning qadr-qimmatiga negativ ta'sir etishdan qochish lozim (siz o'z bolangizning shaxsi bo'lishi haqida hech nima bilmsaysiz, hozir men sizga tushuntirib beraman). Ota-onalar baza o'zlarini hayotida erisholmagan narsalariga farzandlari erishishini xohlaydilar va undan talab qiladilar (masalan, men taniqli rassom, vrach yoki biror boshqa kasb egasi bo'la olmadim, bolam bo'lishi kerak).

Ikkinchidan, ota-ona bolaga bo'lgan ustanovkasini o'zgartirishi lozim. Ular aggressiv hulqli bolani noshukur deb hisoblashadi. O'zlarining jahli va ta'na malomatlariga javoban bolaning aybdorlik tuyg'usini his qilishini, afsuslanishini, kechirim so'rashi va ularni tinchlantirishini kutadi.

Uchinchidan, ota-onaga o'zlarining bolalik xotiralarining, o'sha davrdagi aggressiv qilmishlarining sabablarini eslatish kerak. Balki bu ko'pgina shaxsiy komplekslarni ochishi mumkin.

To‘rtinchidan, bola tug‘ilguncha va chaqaloqligining birinchi oylarida ota-onaning unga bo‘lgan munosabatini aniqlab olish lozim. Agar bola ularning hohishisiz tug‘ilgan bo‘lsa ham baribir ota-onasiga g‘amxo’rlik qilishga burchli. “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasi”dir A.Avloniy O‘quvchilarning ruhiy holatlarini o‘rganish. Maqsad: Qaltis guruhgaga mansub o‘smirlarning tengdoshlari orasidan to‘g‘ri ajratib olish, ularning stress holatiga tushishlari oldini olish va individual tarbiyaviy va psixokorreksion ishlarning to‘g‘ri yo‘nalishini belgilab olish. Ko‘rsatma:



Psixolog bu mashg‘ulotni o‘smir bilan alohida yakka tartibda amalga oshirishi maql. Chunki ba’zi bir savollar tug‘ilishi va ular atrofdagilardan tortinib murojat eta olmasligi mumkun. (Aniq javob olish maqsadida psixolog savollarni izohlab turishi mumkun.

1. Bolaning his-tuyg‘ularini tushunish va qabul qilish Bolaning ichki dunyosini tushunishga harakat qilish kerak. Uning aggressiv bo‘layotganini aniqlash muhim. Uning his-tuyg‘ularini inkor etmasdan, u bilan ochiq muloqot qilish lozim.

2. Xotirjam va sabrli munosabatda bo'lish Bolaga keskin tanbeh berish yoki jazolash uning agressiyasini yanada oshirishi mumkin. Ota-onalar va o'qituvchilar o'zlarini bosib, sokin va tushunarli tarzda gapirishlari kerak.

3. Bolaga ijobiy namuna ko'rsatish Bolalar kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qiladilar. Oilada hamjihatlik va mehr-muhabbat muhitini yaratish muhim.

4. Agressiyani boshqa yo'naliishga burish. Sport, san'at bolaning energiyasini ijobiy yo'naliishda ishlatalishga yordam beradi. O'yin va jismoniy faoliy orqali bola o'zidagi ortiqcha kuchni chiqarib yuborishi mumkin.

Ta'lim va tarbiya jarayonida agressiyani kamaytirish yo'llari.

1. Maktab va tarbiya muhitini yaxshilash O'qituvchilar va tarbiyachilar bolaga individual yondashishlari kerak. Sinf yoki bog'cha muhitida do'stona va tushunarli munosabatlarni shakllantirish lozim.

2. O'zaro muloqot ko'nikmalarini shakllantirish Bolaga o'z his-tuyg'ularini so'z bilan ifodalashni o'rgatish kerak.

3. Intizom va mukofot tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish azolash o'rniha ijobiy mustahkamlash (yaxshi xatti-harakatlarni rag'batlantirish) samaraliroq bo'lishi mumkin.

4. Agressiv xulqli bolalar bilan ishlashda ota-onalarga maslahatlar 1.Kuniga kamida 15-30 daqiqa davomida bola bilan shaxsiy suhbat qilish tavsiya etiladi.

O'z his-tuyg'ularini boshqarishiga yordam berish. Uning salbiy his tuyg'ularini ifodalashi uchun imkoniyat yaratish lozim (rasm chizish, yozish, sport bilan shug'ullanish).

3. Professional mutaxassislardan yordam olish Agar bola doimiy ravishda tajovuzkorlik qilsa va bu uning ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, psixolog yoki pedagog bilan maslahatlashish lozim. Xulosa. Agressiv xulqli bolalar bilan ishslash individual yondashuv va sabr-toqat talab qiladi. Bunday bolalar ko'pincha o'z his-tuyg'ularini qanday boshqarishni bilmaydilar va ularga bu borada yordam berish muhimdir.

Agressiyani kamaytirish uchun:

1. Bolani tushunish va uning his-tuyg‘ularini qabul qilish
2. Xotirjam va sabrli yondashish
3. Ijobiy namuna ko‘rsatish va uni qo‘llab-quvvatlash
4. Sport va ijodiy faoliyat orqali ortiqcha energiyani chiqarib yuborish
5. O‘zaro muloqot va konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Agar ota-onalar va o‘qituvchilar bolaga mehr bilan yondashsalar, unga o‘zini anglash va agressiyani nazorat qilishni o‘rgatsalar, u ijtimoiy jihatdan bardavom va ijobiy shaxs bo‘lib ulg‘ayishadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishslash G. T. Yodgorova. Toshkent 2007 yil
- 2.Davletshin M., Krbiliyat va uning diagnostikasi, T., 1979
- 3.G‘oziyev E., Psixologiya, T., 2003
4. .Yosh davrlari pedagogik psixologiya bo‘yicha “O‘smirlar ruhoiyati”ga oid metodik ko‘tsatmalar. 1990